

## QADIMGI DUNYO TARIXIDA ALOHIDA TA'LIM EXTIYOJIGA EGA BO'LGAN IMSONLARGA BO'LGAN MUNOSABAT

Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li  
Yangi asr universiteti "Umumta'lim fanlari"  
kafedrası o'qituvchisi

### Аннотация:

Ushbu maqolada Qadimgi davrdagi davlatlarda nogironlarga qanday munosabatda bo'linganligi, nogironlarning jamiyatga qanday moslashgani, nogironlikka diniy falsafiy ta'rif, Avestodagi fikrlar taxlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Nogironlik, Rim, Sparta, Avesto, Axriman, Markaziy Osiyo, Xitoy, Zardushtiylik, Van tay, Gerusiya.

### Аннотация:

В данной статье анализируется, как относились к людям с ограниченными возможностями в древних странах, как люди с ограниченными возможностями адаптировались к обществу, религиозно-философское определение инвалидности, мысли в Авесте.

**Annotation:** This article analyzes how people with disabilities were treated in ancient countries, how people with disabilities adapted to society, the religious-philosophical definition of disability, and thoughts in the Avesta.

**Kalit so'zlar:** Nogironlik, Rim, Sparta, Avesto, Axriman, Markaziy Osiyo, Xitoy, Zardushtiylik, Van tay, Gerusiya.

**Ключевые слова:** Инвалидность, Рим, Спарта, Авеста, Ариман, Средняя Азия, Китай, зороастризм, Ван Тай, Герусия.

**Key words:** Disability, Rome, Sparta, Avesta, Ahriman, Central Asia, China, Zoroastrianism, Van Tai, Gerusia.

Nogironlik tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Bu masala har bir davrda jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam berish, nogironlikni oldini olish, nogironlikni davolash masalalari har bir halqning mentalitetidan o'sha davr xususiyatidan kelib chiqqan



xolda turli davrlarda turlicha kasb etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida insonlar o'ta og'ir sharoitda yashaganliklari uchun u davrda faqatgina kuchlilargina jon saqlab qololgan. U davr insonlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan hech qanday munosabat shakllanmagan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga dastlabki munosabatlar diniy-mifologik qarashlar zahirida shakllangan. Bu jarayonni tabiiy xol sifatida qabul qilish mumkin, chunki afsonaviy dunyoqarash bilan falsafiy tafakkur o'rtasida bir qator umumiyliklar mavjud va bu antic davr mutaffakirlarining qarashlarida namoyon bo'lgan. Nogiron tug'ilgan shaxs diniy an'analarga binoan jamiyat tomonidan qoralangan va bu holatga noxushlik belgisi sifatida qarashgan. Masalan, Omen Series Summa Izbu (miloddan avvalgi 2000 yil) bashoratlarida qadimgi Mesopatamiyada inson yoki xayvonlarning biron jismoniy kamchilik bilan tug'ilishi xolati bog'liq vaziyatlarni tasvirlagan. Unda yozilishicha, "Agar bir ayol kar bola tug'sa qirol taxtdan ajraladi. Agar saroydagi ayol 6 ta barmog'i bor bola tug'sa dushman qirol mulkini talon taroj qiladi, agar saroydagi ayol pakana bola tug'sa noxushliklar bo'ladi, agar saroydagi ayol sog'lom o'gil bola tug'sa, davlat gullab yashnaydi deyilgan.<sup>1</sup> Shuning uchun zaif yoki biror nuqson bilan tug'ilgan bolalar nobud qilingan. Qadimgi Sparta davlatida ham bola biror nuqson bilan tug'lsa gerusiy buyrug'iga ko'ra jordan uloqtirilgan.

Qadimgi rim qonunchiligiga binoan ko'zi ojiz, kar-soqov va yura olmaydigan bolalarga meros qoldirilmagan va nosog'lom naslning oldini oldini olish maqsadida ularni turmush qurish xuquqidan maxrum qilishgan.<sup>2</sup>

Qadimgi Xitoyda bo'lsa nogironligi bo'lgan insonlarning ijtimoiy mavqeyini falsafiy taxlil qilishga asosiy e'tibor qaratilgan.<sup>3</sup> Ayniqsa, Konfutsiyning qarashlarida bu xol yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning vafotidan so'n balki g shogirdlari tomonidan jamlanib yagona kitob xoliga keltirilgan Lun Kuy kitobida yozilishicha, "jismoniy nuqson inson qadr qimmatini belgilashda asosiy ro'l o'ynamaydi, balki uning aqli va ma'naviy dunyoqarashi muxim axamyat kasb etadi" deyilgan. Unda yozilishicha uning oldiga bir inson kelib: "Talabalarga ustozlik qilayotgan odam badbashara ekan, lekin shunga qaramay talabalar uni ustoz deb chaqirishayapti" desa, Konfutsiy "Xayot va o'lim mavjud vaziytlarni o'zgartira oladi, lekinbu narsa uning aqlini o'zgartira olmaydi. Shaxarlar vayron bo'lishi

<sup>1</sup> Leichty, Erle. The Omen series Summa Izbu. Locust Valley, New York: Augustin. 1970. – P. 70-71.

<sup>2</sup> Pritchard., James B. The Ancient Near East: Volume II. A New Anthology of Texts and Pictures. Prinseton Nj: Prinset Prinseton University press" 1958. – P. 220-221.

<sup>3</sup> Холиқулова Х. Й. "Ўзбекистонда имконияти чекланган шахсларни химоя қилиш сиёсати" дисс... Тошкент.: 2018. - 145. бет.



mumkin, ular buzilib ketishi mumkin, lekin uning aqli abadiy qoladi”, deb javob berdi.<sup>4</sup> Bu bilan u insonning qadr qimmatini tashqi ko‘rinishi bilan emas, balki uning ma’naviyati bilan belgilashni nazarda tutgan.

Chjuan Szining qarshlari ham Konfuntsiyning qarashlariga o‘xshab ketadi, va u jamiyatdagi nogironlikning ijtimoiy mezonini o‘lchagan inson hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha “Kuchli rux jamiyatdagi nuqsonlar tufayli zaiflashadi va nogironlashadi. Tabiat qanday bo‘lsa, shundayligicha qolishi va insonlar uni o‘zgartirishga urinmasliklari kerak”<sup>5</sup>, deyilgan. Konfunsiy nogironlar haqida yana manabu bu fikrni aytadi. Uning ta’kidlashicha “Tashqi ko‘rinishidagi kamchilik va nogironlik insonning asosiy nuqsoni hisoblanmaydi, balki, aqliy salohiyat birinchi o‘rinda turadi”. Asarda Konfutsiy bilan Chan Chi mullifning suhbatini mosolida Van Tay ismli biroyoqli nogiron faylasuf xaqida so‘z ketadi.<sup>6</sup> U asarda Xitoydagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning og‘ir ijtimoiy holati haqida ma’lumot berilgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo davlatlari tarixi xaqida ma’lumot beruvchi ilk yozma manbalardan biri “Avesto” da ham nogironlik masalalariga alohida to‘xatalib o‘tilgan. “Avesto” dagi qarashlar o‘sha davr ruhidan kelib chiqqan xolda belgilanib, nogironlikni oldini olish, uni davolash, axoli orasida tibbiy madaniyatni oshirishga alohida etibor berilgan. Chunki zardushtiyl dinning paydo bo‘lishi urug‘chilik tuzumidan sinfiy jamiyatga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi.

Yangi jamiyat qurilishida Axuramazda bosh xudo sifatida alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Axriman esa yovuzlik kuchi timsolida Axuramazdaning barcha ezgu ishlariga to‘sqinlik qiladi. Bu sohada tadqiqot olib borgan X. Xomidiyning ta’kidlashicha, “Vendidad” da quyidagi kasalliklarning nomlari sanab o‘tiladi va ularning kasalliklari haqida fikr yuritiladi: O‘lim qo‘qqisidan paydo bo‘ladigan dard, isitma, bezgak, bosh miya og‘rig‘i, ajan, ajxu, ilon chaqqan, duruk, xafaqon, ko‘z tegishi, ruhiyat manzarasi, po‘sidagi va gandidosh. Bularning ko‘pchiligi tozalikka rioya qilmaslik, beparvolik natijasida paydo bo‘lsa, po‘sidagi va “gandosh” (o‘sma, rak) kasalliklarini “Axriman yer yuzida inson urug‘ini quritish niyatida ataylab paydo qilgan” deyiladi<sup>7</sup>. Masalan, avestoning “Vendidad” qismida Axuramazda barpo etayotgan “Nogironlik, kasallik, aqli zaifliklardan xoli jannat” utopiya

<sup>4</sup> Legge James. The Chinese Classics: Analects of Confisius Oxford, UK: “Clarendon Press” 1861. – P. 176.

<sup>5</sup> Albrecht G. Encyclopedia of disability. – London. “Sage publication” 2005. -P. 92.

<sup>6</sup> Legge James. The Complete Chuang Tzu. – Oxford, UK: “Clarendon Press” 1890. – P. 321.

<sup>7</sup> Xoliqulova X. Y. “O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni ximoya qilish siyosati” diss... Toshkent.: 2018. - 145. bet.



mamlakat haqida fikr yuritiladi. Axloqsizlik va aqli zaiflik esa angramanyu, ya'ni, zulmat sanamiga taa'luqli deb qaralgan<sup>8</sup>.

Avestoda nogironlikni davolashdan ko'ra uni oldini olish uchun naslning asl bo'lishi omillariga xam alohida axamiyat berilgan. Birinchidan oila quradigan yoshlarning xar jihatdan benuqson va sog'lom bo'lishi xisobga olingan. Ikkinchidan, xomilador ayollar xomila vvaqtida siqilmasligi, asabiylashmasligi, ko'proq meva, go'sht istemol qilishi, faqat xalol mexnat evaziga topilgan rizqni yeyishi uqtirilgan.

Shuning uchun ham Axrimanning yovuz niyatini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik uchun kasallikni va nogironlikni oldini olish va yer yuzida nogironlikning kamayishiga erishishga alohida axamiyat berilgan. Shundan so'ng bunday kasallika uchragan bemorlarni qanday usullardan foydalanib davolash va davolash vaqtida tabibning ma'suliyati aloxida uqtirilgan. Miloddan avvalgi VII asrning oxirlarida ajdodlarimiz tabobat sohasida quyidagi usullarni qo'llashgan: Otashkadalar xuzurida maxsus darmogoh "poliklinika", sihatgoh "kasalxona" lar tashkil etilgan bo'lib, bu soxa davlat tasarrufiga olingan, sarf xarajatlar vaqf mulki xisobidan qoplangan. Davlat nazoratiga bo'lgach ta'biyki davolash usullari takomillashtiib borilgan. Ayrim tabiblar xuzuriga kelgan bemorlarni yaxshi ruh, ilohiy kuchni da'vat etish ko'magida davolashsa, ba'zilar o'z ilm kuchi bilan muolaja qiladi, boshqa bir tabiblar tig'yordamida kasallikni davolashga usta, yana bir tabiblar xar hil marizliklarni turli tuman giyohlardan tayyorlangan malxamlar vositasida davolaydilar. Yana boshqa toifalari "duo o'qish" bilan davolaydi deyilgan<sup>9</sup>. Nogironlikka olib keluvchi kasallika qarab, xar hil usulda muolaja qilingan. Masalan aqli zaiflik duo o'qish bilan davolangan bo'lsa, turli o'simta kasalliklari tig'yordamida davolangan, giyohlar ichirilgan. Ba'zan to'g'ridan-to'g'ri Yazdanga murojat qilib dardiga davo tilsh, so'rash oxangidagi parchalar ham uchraydi. "Vendida" ning elliginchi fargardida : "Shunday qilinki hamma kasalliklar bir yo'la nobud bo'lsin: ajalni yo'qot, jinlar ujudga keltirgan barcha bemorliklarni yo'q qil" deyiladi.<sup>10</sup> Bu holatlar sundan dalolat beradiki: Avestodagi bu duolar ruhoniylar tomonidan nogironlikni va turli kasalliklarni duo o'qish yo'li bilan davolangan. Bu turdagi qo'shiqlar miloddan avvalgi 1600-yillarda qadimgi Mesopatamiyaning Uruk ruhoniylari tomonidan ham kuylangan.<sup>11</sup> Chunki ular kasalliklar va nogironlikning

8 Махмудова Г. Т., Арифханова С. М. "Зардуштийлик фалсафаси", - Тошкент: Ношир, 2014. -Б. 78-79.

9 Хомидий Х., Дўсжанов Б. "Авесто ва тиббиёт", - Тошкент: "Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти", 2001. - Б. 22.

10 O'sha asar. – B. 23.

11 Pritchard., James B. The Ancient Near East: Volume II. A New Anthology of Texts and Pictures. Prinseton Nj: Prinset "Prinseton University press" 1958. – P. 220-221.



---

vujudga kelishini yomon ruhlarning inson tanasiga kirib olishi bilan izohlashga harakat qilganlar. Shuning uchun tabiblar va kasallika uchragan insonlarning yaqinlari ruhoniylardan yordam so‘rashgan.

